

O'QUV JARAYONIDA O'QUVCHINING DARSGA BOLGAN QIZIQUVCHANLIGI VA DIQQATI

Saparov Baxadir Orinbaevich

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani
10-sonli maktabining matematika fani o'qituvchisi*

Tel.: +998932079363

Orinbaev Nurpolat Baxadirovich

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani
10-sonli maktabining geografiya fani o'qituvchisi*

Tel.: +998934886315

Ko'tilewova Aygerim Mirzabay qizi

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani
10-sonli maktabining 11-sinf o'quvchisi, matematika fan to'garagi a'zosi*

Ko'shkinbaeva Guldana Altinbay qizi

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani
10-sonli maktabining 11-sinf o'quvchisi, matematika fan to'garagi a'zosi*

Toktarbaev Elaman Asqarbay ug'li

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani
10-sonli maktabining 11-sinf o'quvchisi, geografiya fan to'garagi a'zosi*

Asanova Nurjayna Nagiybay qizi

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Mo'ynoq tumani
10-sonli maktabining 10-sinf o'quvchisi, geografiya fan to'garagi a'zosi*

Annotatsiya: Bu maqolada ta'lim va undagi maktabning o'rni, maktabda o'qish jarayonida o'quvchining darsqa bo'lgan qiziqishini va diqqatini orttirishning ahamiyati va natijasi haqida to'xtalib o'tilgan. Shuning bilan qiziqishlik va diqqat, uning shakllanishiga haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Maktab, o'qituvchi, dars, qiziqishlik, diqqat, yakka qiziqish, jamoatshilik qiziqish, bevosita qiziqish, bivosita qiziqish, psixikalik jarayon, psixikalik xizmat.

Hozirgi kunda dunyo yuzi tezlik bilan rivojlanib borayotgan zamonda, qaysi sohani olib qaramayik, uzliksiz raqobat muhitiga aylanganining guvohi bo'lamiz. Bu bo'lsa ilm-fanning yutug'i desak adashmaymiz albatta. O'sha uchunda bugungi globallashuv davrinda yosh-avlodqa zamonimizga soy ta'lim-tarbiya berish eng dolzarb masalalardan biri demakdir.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev, "Ta'lim va tarbiyaning negizi, pundamenti bu -maktabi. Maktabiti, maktabi qiladigan kuch bo'lsa o'qituvchilar" deb aytib

o'tganidey, har bitta inson asosiy hayoti uchun zurr bo'lgan nazariylik va amaliy bilimni, eng faxrli o'rin maktabda oladi. Bu bilimni berishda bo'lsa eng dastlab o'qituvchining roli katta.[1]

Maktabda o'qituvchi tomonidan sipatli dars jarayonini tashkil etish qiyin masala. Bu jarayonni har bitta o'qituvchi o'zining bilim va tajriba, ko'nikmasiga suyana o'tirib olib boradi. Bunda hozirgi zamon pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga yarasha hisoblanadi. O'qish jarayonini, ayniqsa turmush bilan aloqador holda olib borish yaxshi xotimalar berishi so'zsiz. Maktabda o'qish jarayonida, darsqa bo'lgan o'quvchilarning qiziqishini va diqqatini orttirish, ta'limdagi eng qiyin masalalardan. Bola bilim olishda unga kerakli bo'lgan narsa bu, qiziqish va diqqatdir. Agar bolada eng dastlab qiziqishiga qaray o'tirib, diqqatini qarata olsak yaqshi yutuqlarga erishish mumkin. Qiziqishlik bu, inson hayoti davomida yuzaga keladigan qobiliyat. Ya'ni nimadir ishka bo'lgan, ishga layoqatlilik qobiliyat. Bu insonning tug'ma qobiliyatlariga aloqador holda ham shakllanib borishi mumkin.

Qiziqishlik insonning muhim psixologik tomonlarinen biri bo'lib, bevosita u yerda insonning individual hossalari jamlashgan bo'ladi. Psixologiya ilm-fanining ko'zga ko'ringan olimlarining ta'limotiga qaraganda, qiziqishlik odamlarning muhtojliklari asosida aniq jamoatlik -tarixiy shart –sharayot, holatlarinda yuzaga keladi, shakllanadi hamda ularning yakka-yolg'iz turmush sharayoti va xizmatida, jamoatlik ishlab chiqarishda ishtirok etishi kabi omillarda ko'rinadi. Qiziqishlikning psixologik ma'nosining dastlabki ko'rinishi - bu uni odamlar tomonidan anglab yetishi ya'ki tushinish imkoniyatidir.

Psixologiyada qiziqish quyidagi tiplarga ajratiladi.

- 1) mazmuniga qaray : yakka va jamoatlik ;
- 2) maqsadiga qaray : bevosita va bivosita ;
- 3) hajmiga qaray : keng va tor ;
- 4) qiziqish darajasiga qaray : barqaror va barqarorsiz ;[5]

Qiziqish mundarijasi tarafidan insonning bilim imkonining turmush faoliyatning maqsadi bilan mosligidir. Insonning yakka-yolg'iz ishtiyoji kelib chiqishiga qaray birinchi bo'lishiga qaramay, u o'sha vaqtting o'zida jamiyat uchun muhim. Qiziqish inson faoliyati davomida paydo bo'ladi. Biron mashg'ulotlar, amallarni bajarish shog'ida qiziqish paydo bo'lishi ham mumkin. Bu bivosita qiziqish demakdir. Shuning bilan birga diqqatning o'rni katta. Insonga mudom g'oyat ko'p har xil qo'zg'atuvchilar ta'sir yashab turadi. Odamning ongi borlik ob'ektlarni bitta vaqtda yetarlicha keng aniq qamtiy olmaydi. Qandaydir bitta narsa yaqqol shu doirasida bo'ladi, qandaydir bitta narsa toliq qiyofalanmay qoladi, nimadir narsa g'oyat gungurt bo'ladi, ko'plab narsalar butunlay sezilmey qoladi. Tevarak atroftagi g'oyat ko'p ob'ektlardan, zotlardan va hodisalardan, odam o'zi uchun qiziqqlarini, o'zining hojatiga, barqaror rejalariga mos keladiganlarini ajratib oladi. Odamning har qanday xizmati ob'ektti ajratib chiqarishni

va butun diqqatini unga jamlashni taqazo etadi. Boshqa hamma narsalarga ongni belgili bitta ob'ektlarga yoki belgili bitta xizmatka yo'naldirishi va jamlashi diqqat deb ataydi. Diqqat hamma vaqt g'oyat ko'p, boshqa narsalardan qandaydir bitta narsani ajratib olish bo'ladi. Bitta ob'ektning g'oyat ko'p boshqa ob'ektlardan ajratib chiqarilishda diqqatning tanlab oluvchiligi deb atalgan narsa ko'rinadi. Bitta narsaga diqqat qilish bitta vaqtning o'zida boshqasiga qalb bo'lish bo'ladi. Maktab o'quvchilarining psixikalik xizmatini tashkil etish qandoq o'zgarib turadi?

I. P. Pavlovning ta'kidlaganidek «bu nima» degan refleks diqqatning dastlabki shakli sifatida borlik kutilmagan, noma'lum narsadan xalos bo'lish bo'ladi.[4] Darsda o'quvchilar o'qituvchini qiziqishlik bilan tinglaydi. Masalan : Eshik shiyqildaydi va yarimta ochiladi, hamma beixtiyor eshikka yolt qaraydi. «Bu nima? ». Diqqat deganimizning o'zi, qabul etish, yodta saqlash, o'ylash yoki hayol etish kabi ruhiy jarayon emas. Biz qabul etishimiz yodta saqlashimiz, o'ylashimiz mumkin, biroq, «diqqat bilan band» bo'la olmaymiz.

O'quvchilarda darsqa bo'lgan qiziqishlik va diqqatni shakllantirishda, pedagog, har dars jarayonini bir – birini takrorlagan holda olib borish zurrur. Shuning bilan o'quvchini psixologik yoqdan o'rgana o'tirib, ko'proq uning hayotiy ishga layoqatliliklaridan kelib chiqib faoliyat yuritish maqsadga yarasha. Ya'ni, dars jarayonini tashkil etish, uning sifatli va samarodor bo'lishinida eng dastlab o'quvchilarning qiziqishlik va diqqatini paydo qila olishimiz yetarli. Bu esa pedagoglar uchun qiyin masalalardan. Har bitta pedagog bu holatda eng oldi bilan, o'zining bilimi, tajribalariga, umrlik kechirmalariga suyanchlik zurrur. Shundagina dars jarayonida, ta'limda katta yutuqlar qozonishimizga, kelajak avlodlarni bilimli, ziyrak, komil inson etib tarbiyalashda katta yo'l oshishimiz so'zsiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil, 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi.
2. Hassanboev J., Sariboev H., Niyozov G., Hassanboeva O., Usmonboeva M. Pedagogika. oquv qo'llanma. Toshkent Ozbekiston Respublikasn Fanlar akademiyasi «Fan» nahshriyotni. 2006.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar - Qarchi.: Nasaf, 2000.
4. Umarov B. M. «Psixologiya» Toshkent-2012.
5. Goziyev E. G. «Psixologiya» Toshkent-2008.